



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR-FEVRAL


# NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1-mart holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni 1 369 tani tashkil etdi.


Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 417 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 30,5 % i Navoiy shahrida joylashgan.

## 2024- yil 1-mart holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

### Hududlar kesimida



### Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 224 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 16,4 %), Qiziltepa tumanida – 206 ta (15,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari uchun)

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, Navoiy viloyatida jami 721,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi.




*Maʼlumot uchun:* Qurilish faoliyati bu – oʼz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## 2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariiga nisbatan ulushi 78,9 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 132,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariiga nisbatan ulushi 15,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 5,5 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 118,6 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## **2024- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 77,0 % i yoki 555,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 165,9 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlardagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.

**29,8 %**  
**165,9**  
**mlrd. so‘m**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 296,7 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlardagi ulushi 53,4 % ni tashkil etdi.

**53,4 %**  
**296,7**  
**mlrd. so‘m**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 93,1 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.

**16,8 %**  
**93,1**  
**mlrd. so‘m**



## 2024- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Navoiy shahri (148,9 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (80,6 mlrd. so'm), Nurota tumani (78,9 mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (67,8 mlrd. so'm) qayd etildi.


|                          | <b>Qurilish ishlari,<br/>mlrd. so'm</b> | <b>O'sish<br/>sur'ati,<br/>% da</b> | <b>Shu jumladan yangi<br/>qurilish,<br/>rekonstruksiya,<br/>kengaytirish va<br/>texnik qayta<br/>qurollantirish,<br/>mlrd. so'm</b> |
|--------------------------|---|-------------------------------------|---|
| <b>Navoiy viloyati</b>   | <b>721,8</b>                            | <b>121,3</b>                        | <b>555,7</b>  |
| <b><i>shaharlar:</i></b> |   |                                     |   |
| <b>Navoiy</b>            | <b>167,5</b>                            | <b>105,8</b>                        | <b>148,9</b>  |
| <b>Zarafshon</b>         | <b>139,3</b>                            | <b>126,1</b>                        | <b>67,8</b>   |
| <b>G'ozg'on</b>          | <b>0,7</b>                              | <b>121,4</b>                        | <b>0,6</b>  |
| <b><i>tumanlar:</i></b>  |   |                                     |   |
| <b>Konimex</b>           | <b>6,1</b>                              | <b>140,5</b>                        | <b>5,5</b>  |
| <b>Qiziltepa</b>         | <b>100,4</b>                            | <b>103,8</b>                        | <b>80,6</b>   |
| <b>Navbahor</b>          | <b>39,2</b>                             | <b>106,3</b>                        | <b>30,6</b>   |
| <b>Karmana</b>           | <b>64,7</b>                             | <b>102,8</b>                        | <b>36,1</b>   |
| <b>Nurota</b>            | <b>82,3</b>                             | <b>172,1</b>                        | <b>78,9</b>   |
| <b>Tomdi</b>             | <b>64,6</b>                             | <b>2,8 m</b>                        | <b>57,8</b>   |
| <b>Uchquduq</b>          | <b>13,2</b>                             | <b>109,9</b>                        | <b>6,1</b>  |
| <b>Xatirchi</b>          | <b>43,8</b>                             | <b>103,5</b>                        | <b>42,8</b>   |



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

**2024- yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar  
qurilishi asosiy ko'rsatkichlari  
Korxonalar turlari bo'yicha**

**Jami bino va inshootlarni qurish – 569,5 mlrd. so'm.**



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 28,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 12,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % punktga kamayib, 50,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,6 % punktga kamayib, 20,9 % ni tashkil etdi.

# 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi

## Hududlarning hajmi, *mIrd. so'mda*

### *Ma'lumot uchun:*

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xatirchi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 90,1 %) Nurota tumani (88,6 %) va Tomdi tumani (84,9 %) da kuzatildi.



Xatirchi tumani  
90,1 %



Nurota tumani  
88,6 %



Tomdi tumani  
84,9 %

**2024-yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
Korxonalar turlari bo'yicha**

**Fuqarolik obyektlarini qurish- 112,3 mlrd. so'm.**

**10,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari

**11,7**  
mlrd. so'm

**89,6 %**

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

**100,6**  
mlrd. so'm

**0,0 %**

Norasmiy  
sektor


**0,0**  
mlrd. so'm

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 10,4 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga . ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 89,6 % (3,1 % punktga kamaydi).

# 2024- yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, m/lrd. soʻmda



*Maʼlumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori ulushi Uchquduq tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlaring 29,6 % i), Zarafshon shahrini (25,2 %) va Konimex tumani (24,2 %) da kuzatildi.



**29,6 %**  
Uchquduq tumani



**25,2 %**  
Zarafshon shahar



**24,2 %**  
Konimex tumani

# **2024- yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 40,0 mlrd. so'm.**

**0,8**  
mlrd. so'm

**Yirik qurilish tashkilotlari**

**39,2**  
mlrd. so'm

**Kichik korxona va mikrofirmalar**

**1,9 %**

**98,1%**

**Jamiga nisbatan ulushi**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga ko'payib va 1,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

# 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, m/lrd. so‘mda

### Ma’lumot uchun:

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Uchquduq tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 13,8 % i), Karmana tumani (16,4 %) va Konimex tumanida (8,6 %) kuzatildi.



**13,8 %**

Uchquduq tumani



**16,4 %**

Karmana tumani




**8,6 %**

Konimex tumani

## 2024- yilning yanvar-fevral oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlaring asosiy ko'rsatkichlari

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mIrd. so'mda*



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**226,3 %**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**105,5 %**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**105,8 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 174,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 226,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 11,1 % punktga ko'payib, 24,1 % ni tashkil etdi.


**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

## Hududlar kesimida mlrd. so'mda




# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,4 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etgan holda 428,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Hududlar kesimida jamida ulishi % da




# 2024- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,5 % ni yoki 118,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi. Shundan 71,8 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 21,3 mlrd. so'mni va 103,8 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 25,8 mlrd. so'mni va 109,8 % ni tashkil etdi.

## Jamiga nisbatan % da



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar oyidagi hajm, (*mlrd. so‘mda*)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 47,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 674,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,5 % va 93,5 % ni tashkil etdi.

### *Ma’lumot uchun:*

Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush G’ozg’on shahrida (ushbu hududdagi umumiyligining 100 % i), Navbahor tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligining 97,1 % i) va Xatirchi tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligining 94,2 % i) qayd etildi.



## ***Qurilish ishlari*** ***USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR***

***Qurilish ishlari*** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

***Kapital qurilishga pudrat shartnomasi*** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarini amalga oshiradi.

***Qurilish tashkilotlari*** – barcha umumiylar qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi***  
***Tel. (79) 223-54-73***